



YO‘L BELGILARI.AXBOROT ISHORA BELGILARI

Qo‘shshayev Jumma Abdixalilovich

Qiziriq tuman 1-son texnikum o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Mazkur ishda yo‘l belgilari tizimi, ayniqsa axborot-ishora belgilari tushunchasi, ularning turlari, vazifalari hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashdagi ahamiyati yoritilgan. Axborot-ishora belgilari haydovchilar va piyodalarga yo‘l yo‘nalishlari, masofalar hamda xizmat ko‘rsatish obyektlari haqida zarur ma‘lumotlarni yetkazib, yo‘l harakatining tartibli va xavfsiz tashkil etilishiga xizmat qiladi.*

KALIT SO‘ZLARI: *Yo‘l belgilari, axborot-ishora belgilari, yo‘l harakati, yo‘l harakati xavfsizligi, haydovchi, piyoda, transport vositalari.*

KIRISH

Bugungi kunda avtomobil transporti jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Transport vositalarining ko‘payishi yo‘l harakati jadalligining ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda yo‘l harakati qatnashchilarining bilim va madaniyati bilan bir qatorda yo‘l infratuzilmasining to‘g‘ri tashkil etilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yo‘l harakatini tartibga soluvchi asosiy vositalardan biri — yo‘l belgilari bo‘lib, ular haydovchilar, piyodalar hamda boshqa harakat qatnashchilariga yo‘l sharoitlari, harakat tartibi va xavfsizlik talablari haqida aniq ma‘lumot beradi. Yo‘l belgilari o‘z vazifasiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: ogohlantiruvchi, imtiyoz beruvchi, taqiqllovchi, buyuruvchi va axborot-ishora belgilari. Mazkur ishda yo‘l belgilarining muhim turlaridan biri bo‘lgan axborot-ishora belgilari alohida o‘rganiladi. Ushbu belgilar harakat qatnashchilariga yo‘nalish, masofa, aholi punktlari, xizmat ko‘rsatish obyektlari va boshqa zarur ma‘lumotlarni yetkazish orqali yo‘l harakatini yanada qulay va xavfsiz qilishga xizmat qiladi. Axborot-ishora belgilari yordamida



haydovchilar oldindan yo‘l sharoitiga moslashib, to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bois axborot-ishora belgilarining mazmuni, turlari va ularning ahamiyatini o‘rganish yo‘l harakati xavfsizligini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. o‘l harakatini to‘g‘ri va samarali tashkil etishda axborotning aniq, o‘z vaqtida va tushunarli yetkazilishi muhim ahamiyatga ega. Aynan shu vazifani bajarishda axborot-ishora belgilari alohida o‘rin tutadi. Ushbu belgilar haydovchilar va piyodalarga yo‘l yo‘nalishlari, masofalar hamda yo‘l bo‘yida joylashgan xizmat ko‘rsatish obyektlari haqida tezkor ma‘lumot berish orqali harakat jarayonini yengillashtiradi. Axborot-ishora belgilari o‘ziga xos rang va shakllarga ega bo‘lib, ularning ko‘k va yashil rangda bo‘lishi harakat qatnashchilarining e‘tiborini tez jalb etadi hamda ma‘lumotni oson qabul qilishga yordam beradi. Ushbu belgilar to‘rtburchak yoki kvadrat shaklda ishlab chiqilib, xalqaro standartlarga mos piktogrammalar bilan ifodalanadi. Bu esa ularning nafaqat mahalliy, balki xorijiy haydovchilar uchun ham tushunarli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Axborot-ishora belgilari (5-guruh) yo‘l harakati qatnashchilariga aholi punktlari, manzillar, yo‘l qoplamasi turi va harakat tartibi (masalan, bir tomonlama yo‘l, turar-joy dahasi) haqida ma‘lumot beradi. Ular asosan to‘rtburchak shaklida bo‘lib, haydovchilarni yo‘nalish va yo‘l sharoiti o‘zgarishlari haqida oldindan xabardor qilish orqali xavfsizlikni ta‘minlaydi.

MUHOKAMA QISM

Asosiy Axborot-ishora belgilari:

5.1. Avtomagistral: Avtomagistralda harakatlanish qoidalari amal qiladigan yo‘l.

5.3. Avtomobillar uchun yo‘l: Faqat avtomobil, avtobus va mototsikllar harakatlanishi mumkin bo‘lgan yo‘l.

5.5. Bir tomonlama harakatli yo‘l: Qatnov qismida transport vositalari faqat bir yo‘nalishda harakatlanadi.

5.7.1, 5.7.2. Bir tomonlama harakatli yo‘lga chiqish: Bir tomonlama yo‘lga kirish joyi.



5.11. Turar-joy dahasi: Yo'l harakati qoidalarining turar-joy dahasi talablari amal qiladigan hudud.

5.13.1, 5.13.2. Yengil avtomobillar uchun to'xtash joyi: Yengil avtomobillar to'xtashi mumkin bo'lgan joy.

5.15.1, 5.15.2. Bo'laklar bo'yicha harakatlanish yo'nalishlari: Chorrahalarda qaysi bo'lakdan qayerga burilish mumkinligini ko'rsatadi.

5.19.1, 5.19.2. Piyodalar o'tish joyi: Piyodalar yo'lni kesib o'tish joyi.



5.1 "Avtomagistral" Yo'l harakati qoidalarining avtomagistrallarda harakatlanish tartibi o'rnatilgan yo'l.



5.2 "Avtomagistralning oxiri"



5.3 "Avtomobillar uchun mo'ljallangan yo'l" Faqat avtomobillar, avtobus va mototsikllar harakatlanishi uchun mo'ljallangan yo'l.



5.4 "Avtomobillar uchun mo'ljallangan yo'lning oxiri"



5.5 "Bir tomonlama harakatlanish yo'li" Transport vositalarining butun kenglik bo'yicha bir yo'nalishda harakatlanadigan yo'li yoki yo'l qismi.



5.6 "Bir tomonlama harakatlanish yo'lining oxiri"





5.7.1 “Bir tomonlama harakatlanish yo'liga chiqish” Harakatlanish bir tomonlama bo'lgan yo'lga yoki qatnov qismiga chiqish.



5.7.2”Bir tomonlama harakatlanish yo'liga chiqish” Harakatlanish bir tomonlama bo'lgan yo'lga yoki qatnov qismiga chiqish.



5.8.1 “Bo'laklar bo'yicha harakatlanish yo'nalishi” Bo'laklar soni va har biri bo'yicha ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishi.



5.8.2 “Bo'lak bo'yicha harakatlanish yo'nalishi” Bo'lak bo'yicha ruxsat etilgan harakatlanish yo'nalishi. Yo'lning chetki chap bo'lagidan chapga burilishga ruxsat beruvchi 5.8.1 va 5.8.2 belgilari shu bo'lakdan qayrilishga ham ruxsat beradi. Chorrahadan oldin o'rnatilgan 5.8.1 va 5.8.2 belgilarining ta'siri, agar shu turkumdagi boshqa belgilar o'rnatilmagan bo'lsa, butun chorrahaga tadbiiq etiladi.

Yo'l belgilari yo'l harakatini tartibga solishda muhim vosita bo'lib, ular ichida axborot-ishora belgilari alohida ahamiyatga ega. Ushbu belgilar haydovchilar va piyodalarga yo'l yo'nalishlari, masofalar, aholi punktlari nomlari hamda yo'l bo'yida joylashgan xizmat ko'rsatish obyektlari haqida zarur ma'lumotlarni yetkazadi. Muhokama jarayonida aniqlanishicha, axborot-ishora belgilari yo'l harakati qatnashchilarining harakatini yengillashtirib, yo'l harakatining tartibli va uzluksiz bo'lishini ta'minlaydi. Axborot-ishora belgilari rang va shakl jihatidan aniq farqlanadi. Ularning ko'k va yashil rangda bo'lishi haydovchilarning e'tiborini tez jalb etib, ma'lumotni tez qabul qilishga yordam beradi. Belgilarning to'rtburchak va kvadrat shaklda bo'lishi esa ularni boshqa turdagi yo'l belgilaridan oson ajratishga imkon yaratadi. Bu ayniqsa, yuqori tezlikda harakatlaniladigan yo'llarda muhim hisoblanadi.

XULOSA



Xulosa qilib aytganda, yo‘l belgilari, xususan axborot-ishora belgilari yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu belgilar haydovchilar va piyodalarga yo‘l sharoiti, yo‘nalishlar, masofalar hamda xizmat ko‘rsatish obyektlari haqida aniq va tushunarli axborot beradi. Axborot-ishora belgilariga rioya qilish yo‘l-transport hodisalarining kamayishiga, harakatning tartibli va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi. Shuning uchun yo‘l belgilarini puxta o‘rganish va ularga amal qilish har bir yo‘l harakati qatnashchisining muhim vazifasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalar. – Toshkent.
- 2.Yo‘l belgilari va chiziqlari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.
- 3.Yo‘l harakati xavfsizligi asoslari. Darslik.
- 4.Avtotransport va yo‘l harakati qoidalariga oid metodik qo‘llanmalar.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujjatlar.